

Adabiyotshunoslikda obraz tushunchasi va tahlili

Karimova Munira Axmadjanovna,
Xalqaro Nordik universiteti,
Chet tillari kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Badiiy adabiyotning muhim xususiyati obrazlilik bo'lib, uning mohiyati Gegel tomonidan belgilangan obrazli tafakkur (“мышление в образах”) istilohida aks etgan. Bu ta'rif asrlar davomida nafaqat badiiy adabiyotning, balki san'atning muhim qoidasi sifatida qaraladi. Shunday ekan, san'atning boshqa turlariga ham xos bo'lган obrazli tafakkur adabiyotda so'z orqali yaratiladi va uning vositasida reallashadi. Ushbu maqolada obraz tushunchasi va uning mohiyati haqida atroficha fikr yuritilgan bo'lib, bu tushuncha yuzasidan olib borilgan qator muhokamalar o'rganildi. Badiiy asarning asosi hisoblangan obraz va obrazlilik terminlariga doir turli qarashlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: obraz, badiiy adabiyot, obrazlilik, asar qahramoni, obrazli tafakkur

Har bir badiiy adabiyot na'munasida voqealarni bir-biriga ulovchi, yozuvchining istak va niyyatlarini amalga oshiruvchi ishtirokchilar mavjud bo'ladi. Bu ishtirokchilar badiiy obraz bo'lib, asar sujetini xarakatlantiruvchi asosiy vositahamdir. Har bir asar obrazi asarning oddiy ishtirokchisi, asar qahramoni, yoki asar bosh qahramoni bo'lishi mumkin.

Badiiy asarning asosi hisoblangan obraz va obrazlilik terminlariga doir turli qarashlar quyidagicha tahlil qilinadi:

«Obraz» (yunoncha *eydos – ko'rinish, manzara*) bu tashqi ko'rinish, predmet va narsaning qiyofasi ma'nosini anglatadi. Shu bilan birga predmet va narsaning mohiyati, g'oyasi, ichki mazmuni tushunchalarini ham o'zida tashiydi. Keyinchalik bu ikki mohiyat o'zaro birlashib, aks ettirish ma'nosiga kelgan. Yunon olimi Platon uchun **obraz** real dunyoning adabiy aksi bo'lsa, Aristotel uni «mimesis» nazariyasи,

ya'ni taqlid orqali tushuntirgan. “Литературный энциклопедический словарь” да обraz mohiyatiga tarixiy nuqtai nazardan yondashilib, u haqdagi qator qarashlar keltirilgan: I.Kant obrazni muvofiqlik va mos kelish, fikr va tuyg’uning uyg’unligi («сочетание и согласие», «чувственность и рассудок») sifatida e'tirof etgan. Shelling talqinida esa, obraz real va ideal, borliq va g’oya, tugallanganlik va hududsizlik tushunchalarini o’zida birlashtirgan¹.

Gegelning “Estetika” asarida bu termin ancha keng talqin qilingan bo’lib, “Biz poetik tafakkurni obrazli tasavvur qilamiz. Obrazni estetik reallik, badiiy me'yor, g’oya, umumiylilik, originallik hamda, mazmun va shaklning dialektik birligi sifatida tushunamiz”², deb yozadi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda **badiiy obraz** deyilganda hayot hodisalarini konkret-individual shaklda qayta yaratish tushuniladi. Uning maqsadi va mohiyati borliqqa taqlid qilish emas, balki uni konkret shakllarda qayta ijodiy yaratishdan iboratdir. Adabiyotda obraz so’z vositasida reallashadi. Obrazga xos jihatlar predmetlilik, ma'no umumlashmasi va tarkibiylikdan iborat. “Entsiklopedik lug’at”da ko’rsatilishicha, obraz tarkibi o’zgaruvchandir. Badiiy vaqt va badiiy makon obrazning asosiy xususiyatlari sanalib, borliqni yaxlit qabul qilishlikni ta'minlaydi³.

Badiiy adabiyotning muhim xususiyati **obrazlilik** bo’lib, uning mohiyati Gegel tomonidan belgilangan obrazli tafakkur (“мышление в образах”) istilohida aks etgan. Bu ta'rif asrlar davomida nafaqat badiiy adabiyotning, balki san'atning muhim qoidasi sifatida qaraladi. Shunday ekan, san'atning boshqa turlariga ham xos bo’lgan obrazli tafakkur adabiyotda so’z orqali yaratiladi va uning vositasida reallashadi. Demak, obrazlilik adabiyotning so’z san'ati sifatidagi mohiyatini ham o’zida aks ettirishi mumkin.

San'atning borliqni o’rganuvchi boshqa vositalaridan farqi haqida so’z yuritilganda “obrazli tafakkur”, ya'ni obrazlilik bosh mezon sifatida qaraladi.

¹ Литературный энциклопедический словарь. - М.: СЭ, 1987. - С. 255.

² Гегель Г.В.Ф. Лекции по эстетике / Введение в литературоведение. Хрестоматия. Сост. Николаев П.А., Эсалнек А.Я. - М.: Высшая школа, 2006. – С. 8.

³ Литературный энциклопедический словарь. - М.: СЭ, 1987. – С. 487.

Boshqa ijtimoiy ong shakllari, xususan, “fan mantiqiy tushunchalar orqali fikr yuritish bo’lsa, san’at obrazli tafakkurdir” (V.G.Belinskiy) degan ta’rif barcha lug’at va qo’llanmalarda o’z kuchini saqlab kelmoqda⁴. D.Quronov tomonidan tayyorlangan “*Adabiyotshunoslikka kirish*” qo’llanmasida “badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa va.hk.) badiiy asardagi aksi. Biroq badiiy obraz o’sha borliqning oddiygina aksi emas, yo’q, u borliqning san’atkor ko’zi bilan ko’rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksidir”⁵ deb tushuntiriladiki, bu anglatma badiiy obrazning mohiyatini imkon qadar kengroq tushunishga yordam beradi.

Adabiyot va san’atda hayotni aks ettiruvchi obrazlarni yaratishda san’atkor, yoki adib obyektiv voqelikni qalb prizmasidan o’tkazib, qayta jonlantiradi, yoki boshqacha qilib aytkanda, obrazli tasvirni hosil qiladi. Hayotdagi sotsial tiplar badiiy obrazga aylanishi uchun esa, yozuvchining g’oyasi, pozitsiyasi, sotsial tip faoliyatidan chiqargan hayotiy umumlashmasi va shaxsning takrorlanmas individual xususiyatlari katta rol o’ynarkan.⁶ Chunonchi, “Faylasuf sillogizmlar bilan, shoir esa obrazlar va kartina (manzara) bilan gapiradi, ikkalasi ham bir narsani gapiradi... Biri isbot etadi, ikkinchisi ko’rsatadi va ikkalasi ham ishontiradi. Faqat biri mantiqiy dalillar bilan, ikkinchisi esa kartina (manzara) bilan ishontiradi”.⁷ Shuningdek, Rus olimi Golovenchenko “hikoyada xarakter taraqqiyotda berilmaydi, har bir shaxs tayyor holda namoyon bo’lib, uning biror xususiyati ochib beriladi”⁸, deya e’tirof etadi. Timofeevning nazariy qarashlari ham shunga yaqinroq: “Xarakter shakllangan tayyor holda ko’rsatiladi. Aks ettirilayotgan voqeagacha xarakterning qanday bo’lganligi, u tugagandan so’ng qanday bo’lishligi tasvirlanmaydi, yoki yo’l - yo’lakay aytib o’tilishini” ta’kidlaydi.⁹

O’z – o’zidan ayon bo’ladiki, obraz, ijodkor tafakkurida qayta ishlangan, estetik qiymatga ega bo’lgan manzara qiyofani tavsiflaydi.

⁴ Введение в литературоведение. Под ред. М.В. Крупчанова. - М.: Оникс, 2007. - С. 39.

⁵ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. - T.: Fan, 2007. - Б. 64.

⁶ Karimov H.U. Badiiy adabiyotda obraz va obrazlilik. Т.: O’zbekiston, 1984.

⁷ Adabiyot nazariyasi, 1-tom. Т.: Fan, 1978.

⁸ Головенченко Ф. М. Введение в литературоведение. М.: Просвещение, 1964

⁹ Тимофеев В. И. Основы теории литературы. М.: Узпедгиз, 1963

Yozuvchining badiiy obraz yaratish mahorati masalalari adabiyotshunoslikda atroflicha o’rganilgan. Jumladan, H.O’.Karimov “*Badiiy adabiyotda obraz va obrazlilik*” nomli monografiyasi, shuningdek “*Tarixiy shaxs va badiiy obraz*” nomzodlik dissertatsiyasida lug’atshunoslikda obrazning yuzaga kelishi, ma’noviyligi, ta’rif va tasniflari, hamda adabiyotda badiiy obraz va obrazlilikning paydo bo’lishi haqida to’xtalgan. F.Yo. Jo’rayeva “*Tipologik obrazlarning qiyosiy tahlili (L.Tolstoy; H. To’xtaboyev asarlarida)*” nomzodlik dissertatsiyasida qiyosiy adabiyotshunoslikning muhim masalalari - badiiy asar qahramonlarining tipologik tahlili muammolari, hamda adabiy ta’sir shakllarining rivojlanish qonuniyatları tekshiriladi, Hojimurod va Namoz obrazlari ilk bor qiyosiy- tipologik jihatdan o’rganilganki, bu adabiyotda obraz yaratilish mahoratini o’rganish, qiyoslash, tahlil etish bugungi kun tadqiqotining asosiy predmetlaridan biri bo’lib kelayotkanligini ko’rsatadi. O.I. Duysenbayev “*O’tkir Xoshimov ijodida ona obrazi*” nomzodlik dissertatsiyasida adib ijodida ona obrazining badiiy evrilishi, tadriji va takomili, shunga aloqador ravishda yozuvchi mahorati, ijodining milliy o’ziga xosligi jihatidan o’rgangan. A. Xatamova “*Adabiyotshunoslik terminlarida identifikasiya va muqobillik muammolari(ruscha-o’zbekcha terminologiyasi asosida)*” nomzodlik dissertatsiyasi bobining “*Obraz va obrazlilik terminlari va ularning ilmiy-adabiy hayotdagi o’rni*” mavzuidagi ikkinchi faslida badiiy asarning asosi hisoblangan obraz va obrazlilik terminlariga doir qarashlar tahlil qilingan bo’lib, unda obraz terminini izohlashda uning nafaqat badiiy adabiyotda qo’llanilishi, balki fanning boshqa gumanitar sohalaridagi qarashlarni ham hisobga olib ish yuritish lozim ekanligi, biroq obraz tushunchasining badiiy adabiyotdagi o’rni san’atning boshqa turlariga nisbatan izchilroq ishlanganligini nazarda tutgan holda, unga ta’rif berilganda obrazning konkret va umumlashma xarakteridan kelib chiqib ish yuritish maqsadga muvofiq ekanligi ta’kidlanadi.

Yana J.Rahimovning “*Yozuvchi obrazi*”, E.Umarovning “*Obrazlar dunyosida*”, M.Hakimovning “*Shakl, hayotiylik va obrazlik*”, A. Rasulovning “*Badiy asar qanotlari. Obraz va obrazlilik uslubi*”, N. Xolliyevning “*badiiy obrazlar sistemasi*”, M. Xavaydarovaning “*Структура образа героя в романе XX*

veka” kabi bir qator qo’lyozmalarda obraz tushunchasi, mohiyati, yaratilish mahoratining o’ziga xosliligi, hamda strukturaviy ahamiyati oolib berilgan va tahlil etilgan. Shuningdek, bu borada I. Sultonov, H. Yoqubov, M. Qo’shjonov, O. Sharafiddinov, S. Mamajonov, N. Karimov, S. Mirvaliyev, B.Nazarov, U.Normatov, D.Quronov va boshqalar qator tadqiqotlar yaratganlar.

Keltirilgan ilmiy ishlarning aksariyat qismidagina obraz yaratilish mahorati qiyosiy - tipologik jihatdan tadqiq etilganligi, bu borada yana ko’plab ilmiy izlanishlar olib borilishi ustuvor vazifa ekanligini ko’rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Литературный энциклопедический словарь. - М.: СЭ, 1987. - С. 255.
2. Гегель Г.В.Ф. Лекции по эстетике / Введение в литературоведение. Хрестоматия. Сост. Николаев П.А., Эсалнек А.Я. - М.: Высшая школа, 2006. – С. 8.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. - Т.: Fan, 2007. - Б. 64.
4. Karimov H.U. Badiiy adabiyotda obraz va obrazlilik. Т.: O’zbekiston, 1984.
5. Adabiyot nazariyasi, 1-tom. Т.: Fan, 1978.
6. Головенченко Ф. М. Введение в литературоведение. М.: Просвещение, 1964
7. Тимофеев В. И. Основы теории литературы. М.: Узпедгиз, 1963
8. Karimova, M. (2019). Verbalization Of The Concept “Love” By Phrase Logical Units And Proverbs. *International Journal of Bio-Science and Bio-Technology*, 11(10), 98-104.